# II. SANOAT

**Qashqadaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi**

*(2023- yil yanvar-dekabr)*

| | |
|---|---|
| Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash | |
| **1 626,3 mlrd. so‘m** | **80,3 %** |
| Ishlab chiqarilgan sanoat | |
| **22 132,9 mlrd. so‘m** | **122,7 %** |
| Elektr, gaz, bug‘ bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash | |
| **4 358,7 mlrd. so‘m** | **79,9 %** |
| Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish | |
| **141,7 mlrd. so‘m** | **109,0 %** |

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida 28 259,6 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, sanoat ishlab chiqarish indeksi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 107,1 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush sanoat mahsulotlarini qayta ishlay-digan korxonalar hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 78,3 % ni tashkil etdi.

Statistik hisob-kitoblar bo‘yicha joriy yilning yanvar-dekabr oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 6 331,2 mlrd. so‘m miqdorida (jami sanoat mahsulotlari hajmining 22,4 foizi)ga baholandi va sanoat ishlab chiqarish indeksi o‘tgan yilga nisbatan 125,2 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar va uy xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 3 509,8 mlrd. so‘m miqdorida (123,2 foiz) hisob-kitob qilindi.

Mahsulotlar ishlab chiqarishning eng katta hajmi ishlab chiqaradigan (qayta ishlaydigan) korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan bo‘lib, ishlab chiqarish hajmi 22 132,9 mlrd. so‘m bo‘lib, jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 78,3 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, hisobot davrida jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash faoliyat turi bo‘yicha 4 358,7 mlrd. so‘m (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 15,4 %), suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish faoliyat turlari bo‘yicha 141,7 mlrd. so‘m (0,5 %) hamda tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash faoliyat turi bo‘yicha 1 626,3 mlrd. so‘m (5,8 %) mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

Sanoat ishlab chiqarishning o‘sishiga (122,7 %) Ishlab chiqaradigan sanoati korxonalari munosib hissa qo‘shdi, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 78,3 % ni tashkil etdi.

**Yanvar-dekabr oylarida sanoat ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur’ati**




**2023- yilning yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi**

**22 132,9 mlrd.so'm**
- **Ishlab chiqaradigan sanoat (jamiga nisbatan ulushi 78,3 *%)***

**4 358,7 mlrd.so'm**
- **Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash *(15,4 %)***

**1 626,3 mlrd.so'm**
- **Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash *(5,8 %)***

**141,7 mlrd.so'm**
- **Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish *(0,5 %)***

**Yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

| | *mlrd. so‘m* | | *fizik hajm indeksi, %* | *jamiga nisbatan ulushi, foiz hisobida* | |
|---|---|---|---|---|---|
| | *2022- y.* | *2023- y.* | | *2022- y.* | *2023- y.* |
| **Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo‘yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi** | **22 814,7** | **28 259,6** | **107,1** | **100,0** | **100,0** |
| *iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha:* | | | | | |
| **Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash** | **1 712,6** | **1 626,3** | **80,3** | **7,5** | **5,8** |
| *ulardan:* | | | | | |
| Tog‘-kon sanoatining boshqa sohalari | 146,2 | 208,9 | 125,9 | 0,6 | 0,7 |
| **Qayta ishlash sanoati** | **15 549,9** | **22 132,9** | **122,7** | **68,2** | **78,3** |
| *undan:* | | | | | |
| Oziq- ovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish | 3 144,4 | 3 110,6 | 105,9 | 13,8 | 11,0 |
| To‘qimachilik mahsulotlari, kiyimlar, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish | 6 038,2 | 6 875,3 | 115,9 | 26,5 | 24,3 |
| Yog‘och va po‘kak buyumlar, pohol va to‘qish uchun materiallardan buyumlar, qog‘oz va qog‘oz mahsulotlari, mebellar ishlab chiqarish | 31,8 | 7,2 | 59,5 | 0,1 | 0,03 |
| Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish | 5,0 | 8,5 | 157,6 | 0,02 | 0,03 |

*davomi*

| | *mlrd. so'm* | | *fizik hajm indeksi, %* | *jamiga nisbatan ulushi, foiz hisobida* | |
|---|---|---|---|---|---|
| | *2022- y.* | *2023- y.* | | *2022- y.* | *2023- y.* |
| Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish | 4 430,6 | 4 195,4 | 105,6 | 19,4 | 14,8 |
| rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish | 76,1 | 96,7 | 103,4 | 0,3 | 0,3 |
| Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarish | - | 4 966,1 | 120,3 | - | 17,6 |
| Asosiy farmasevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish | 3,9 | 23,4 | 115,2 | - | 0,1 |
| Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish | 730,2 | 1 424,2 | 3,1 m. | 3,2 | 5,0 |
| Metallurgiya sanoati | 22,5 | 17,9 | 52,4 | 0,1 | 0,1 |
| Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish | 87,2 | 116,2 | 120,7 | 0,4 | 0,4 |
| Kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish | 93,7 | 105,1 | 136,3 | 0,4 | 0,4 |
| Elektr uskunalar ishlab chiqarish | 5,4 | 4,8 | 80,4 | 0,02 | 0,01 |
| Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish | 13,0 | 6,5 | 34,9 | 0,1 | 0,02 |
| Mashina va uskunalar ta'mirlash va o'rnatish | 8,9 | 10,2 | 69,5 | 0,04 | 0,04 |
| boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish | 3,7 | 2,5 | 41,1 | 0,02 | 0,01 |
| **Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash** | **5 429,6** | **4 358,7** | **79,9** | **23,8** | **15,4** |
| **Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish** | **122,7** | **141,7** | **109,0** | **0,5** | **0,5** |

Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1 626,3 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,8 foizini tashkil etdi.

Tog‘-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo‘yicha Tabiiy gaz olish hajmi o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 96,2 foizga pasayganligini kuzatish mumkin.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**
*(umumiy hajmga nisbatan ulishi, foiz hisobida)*




**Yanvar-dekabr iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsuloti turlarini ishlab chiqarish**
*(yirik korxonalar bo‘yicha)*

| | *o‘lchov birligi* | *yanvar-dekabr oylarida* | | *2022- yil yanvar-dekabrga nisbatan, % hisobida* |
|---|---|---|---|---|
| | | *2022- y.* | *2023- y.* | |
| **Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash** | | | | |
| Xom neft | *ming tn.* | 20,4 | 10,2 | 84,1 |
| Shag‘al | *ming tn.* | 40,4 | 47,5 | 117,8 |
| Chaqiq tosh (sheben) | *ming tn.* | 24,6 | 28,9 | 138,6 |

*davomi*

| | *o'lchov birligi* | *yanvar-dekabr oylarida* | | *2022- yil yanvar-dekabrga nisbatan %, hisobida* |
|---|---|---|---|---|
| | | *2022- y.* | *2023- y.* | |
| **Qayta ishlash sanoati** | | | | |
| Aroq mahsulotlari | *ming l. 100% spirt* | 2 865,5 | 2 287,7 | 79,8 |
| Yumshoq bug‘doy va spelta uni | *ming tn.* | 116,0 | 31,5 | 27,1 |
| O'simlik yog'i (tozalangan) | *tn.* | 3 797,2 | 659,0 | 15,0 |
| Paxta tolasi | *ming tn.* | 74,7 | 81,3 | 100,8 |
| Paxta chigiti | *ming tn.* | 104,4 | 133,3 | 126,4 |
| Paxta tiviti (lint) | *tn.* | 4 602,5 | 3 927,9 | 74,1 |
| Mashina yoki qo‘lda to‘qilgan tirkotaj polotnolar | *tn.* | 2 335,0 | 4 764,0 | 2,0 m. |
| Paxtadan yigirilgan ip | *ming tn.* | 51,6 | 59,5 | 119,8 |
| Kaliy xlorid | *ming tn. K2O* | 197,8 | 198,1 | 100,1 |
| **Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash** | | | | |
| Ishlab chiqarilgan elektr energiyasi | *mln.kVt/s* | 8 430,8 | 8 167,2 | 96,1 |
| Bug‘ va issiq suv (issiqlik energiyasi) | *ming Gkal.* | 3 220,2 | 3 370,8 | 104,6 |

*davomi*

| | *o'lchov birligi* | *yanvar-dekabr oylarida* | | *2022- yilga nisbatan, % hisobida* |
|---|---|---|---|---|
| | | *2022- y.* | *2023- y.* | |
| **Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish** | | | | |
| Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlari | *mln. so'm* | 93 968,6 | 10 661,6 | 73,9 |
| Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar | *mln. so'm* | 14 420,6 | 118 153,4 | 125,7 |

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 28 259,6 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 107,1 % tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,5 foizni, o'rta-yuqori texnologiyali 14,9 foizni, o'rta-quyi texnologiyali 23,5 foiz va quyi texnologiyali 39,5 foizni tashkil etdi.

**2023- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi**



O‘z navbatida, ishlab chiqaradigan sanoatda o‘tgan yilning mos davriga nisbatan shag‘al 17,8 foizga, paxtadan yigirilgan ip 19,8 foizga oshgan bo‘lsa, Yumshoq bug'doy va spelta uni 72,9 foizga, O'simlik yog'i (tozalangan) 85,0 foizga pasayganligini kuzatish mumkin.

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4 358,7 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 15,4 foizni) tashkil etdi.

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 141,7 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 foizi) tashkil etdi.

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan oqava suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlarning 25,7 foizga oshganligi, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash xizmatlarining 26,1 foizga pasayganligini kuzatildi.

### Iste’mol tovarlari ishlab chiqarish

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida 4 800,5 mlrd. so‘mlik iste’mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2022- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 102,3 foizni tashkil etdi.

Jumladan, 2 731,7 mlrd. so‘mlik oziq-ovqat mahsulotlari (2022 yilning yanvar-dekabriga nisbatan 101,5 foiz), 140,3 mlrd. so‘mlik vino-aroq mahsulotlari (95,7 foiz) va 1 928,5 mlrd. so‘mlik nooziq-ovqat mollari (108,5 foiz) ishlab chiqarildi.

**Yanvar-dekabr oylarida iste’mol tovarlari ishlab chiqarish**

| | *mlrd. so‘m* | | *jamiga nisbatan ulushi, foiz hisobida* | |
|---|---|---|---|---|
| | *2022- y.* | *2023- y.* | *2022- y.* | *2023- y.* |
| **Iste’mol tovarlari ishlab chiqarish** | **4 763,1** | **4 800,5** | **100,0** | **100,0** |
| *shu jumladan:* | | | | |
| oziq-ovqat tovarlari | 2 744,1 | 2 731,7 | 57,6 | 56,9 |
| nooziq-ovqat tovarlari | 1 884,6 | 1 928,5 | 39,6 | 40,2 |
| Alkagol ichimliklari | 134,4 | 140,3 | 2,8 | 2,9 |

**2023- yilning yanvar-dekabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**




**Yirik va kichik biznes subyektlari tomonidan iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi,**

*jamiga nisbatan ulishi, foiz hisobida*



**Shahar va tumanlar bo‘yicha sanoat ishlab chiqarish hajmlari**
*(jamiga nisbatan ulishi )*

Viloyatni sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p ulushi Nishon tumani (jami ishlab chiqarish hajmining 29,7 %), G‘uzor (13,5 %), Qarshi shahri (13,4 %), Qarshi tumani (7,2 %), Kasbi tumani (5,8 %), Kitob tumani (4,7 %), Koson (4,3 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

Shuningdek, iste’mol tovarlari hajmining eng katta qismi Qarshi shahri (jami iste’mol tovarlari hajmining 18,1 %), Chiroqchi (11,4 %), Koson (8,4 %), Shahrisabz shahar (7,8 %), Yakkabog’ (7,7 %) va Kasbi (6,3 %) tumanlarida ishlab chiqarildi.

**Shahar va tumanlar bo‘yicha iste’mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi**
*(viloyat bo‘yicha jamiga nisbatan ulishi, foiz hisobida)*



**2023- yilning yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha sanoat mahsulotlari va iste’mol tovarlari ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari**

| | *sanoat mahsulotlari, mlrd. so‘m* | *jamiga nisbatan ulushi, %* | *iste’mol tovarlari, mlrd. so‘m* | *jamiga nisbatan ulushi, %* |
|---|---|---|---|---|
| **Qashqadaryo viloyati** | **28 259,6** | **100,0** | **4 800,5** | **100,0** |
| *shaharlar:* | | | | |
| Qarshi sh. | 3 775,3 | 13,4 | 871,2 | 18,1 |
| Shahrisabz sh. | 460,8 | 1,6 | 372,1 | 7,8 |
| *tumanlar:* | | | | |
| G‘uzor | 3 812,7 | 13,5 | 203,3 | 4,2 |
| Dehqonobod | 921,7 | 3,3 | 151,8 | 3,2 |
| Qamashi | 787,4 | 2,8 | 216,6 | 4,5 |
| Qarshi | 2 047,0 | 7,2 | 213,5 | 4,4 |
| Koson | 1 214,3 | 4,3 | 401,0 | 8,4 |
| Kitob | 1 319,0 | 4,7 | 202,8 | 4,2 |
| Mirishkor | 648,5 | 2,3 | 169,0 | 3,5 |
| Muborak | 818,6 | 2,9 | 239,0 | 5,0 |
| Nishon | 8 394,4 | 29,7 | 161,0 | 3,4 |
| Kasbi | 1 628,3 | 5,8 | 304,6 | 6,3 |
| Ko‘kdala | 148,7 | 0,5 | 133,2 | 2,8 |
| Chiroqchi | 836,1 | 3,0 | 547,5 | 11,4 |
| Shahrisabz | 517,7 | 1,8 | 244,5 | 5,1 |
| Yakkabog’ | 929,2 | 3,3 | 369,4 | 7,7 |

**Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va iste’mol tovarlarini ishlab chiqarish**

| | *Ishlab chiqarish hajmi, aholi jon boshiga, ming so‘m* | |
|---|---|---|
| | *sanoat mahsulotlari* | *iste’mol tovarlari* |
| **Qashqadaryo viloyati** | **8 024,9** | **1 363,2** |
| *shaharlar:* | | |
| Qarshi sh. | 12 918,8 | 2 981,3 |
| Shahrisabz sh. | 3 156,4 | 2 548,7 |
| *tumanlar:* | | |
| G‘uzor | 17 350,3 | 925,0 |
| Dehqonobod | 5 873,5 | 961,6 |
| Qamashi | 2 715,7 | 747,1 |
| Qarshi | 7 613,3 | 794,2 |
| Koson | 3 937,8 | 1 300,3 |
| Kitob | 4 725,1 | 726,4 |
| Mirishkor | 5 058,5 | 1 318,6 |
| Muborak | 8 836,0 | 2 471,3 |
| Nishon | 50 975,9 | 977,6 |
| Kasbi | 7 728,6 | 1 445,8 |
| Ko‘kdala | 799,2 | 716,0 |
| Chiroqchi | 3 163,2 | 2 071,5 |
| Shahrisabz | 2 220,3 | 1 091,4 |
| Yakkabog’ | 3 323,2 | 1 321,2 |

**2023- yilning yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste’mol tovarlarini ishlab chiqarish hajmlari,**

*ming so‘mda*




Hisobot davrida aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi eng yuqori ko‘rsatkichlar bilan Nishon tumani 50 975,9 ming so‘m, G‘uzor tumani 17 350,3 ming so‘m va Qarshi shahrida 12 918,8 ming so‘mni tashkil etdi.

**2023- yilning yanvar-dekabr oylarida tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish**

Tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturini amalga oshirish doirasida tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida 6 162,7 mlrd. so‘mlik mahalliylashtirilgan mahsulot ishlab chiqarildi.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish hajmlarining o‘sishi bo‘yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi, korxonalarning ishlab chiqarish faoliyati uchun zarur bo‘lgan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni o‘sishining va import tovarlari qisqarishining omillaridan biri hisoblanadi.

**Mahalliylashtirish dasturining asosiy ko‘rsatkichlari**

| | *2022- yil yanvar-dekabr* | *2023- yil yanvar-dekabr* |
|---|---|---|
| Loyihalar soni, *birlik* | 83 | 46 |
| Korxonalar soni, *birlik* | 42 | 29 |
| Ishlab chiqarish hajmi, *mlrd.so‘m* | 773,1 | 6 162,7 |
| Eksport qilingan mahalliylashtirilgan mahsulot hajmi, *mln. AQSh doll.* | 0,8 | 93,0 |
| Yaratilgan yangi ish o‘rinlari, *birlik* | 646 | 239 |

**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi**

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 3 640,9 mlrd. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Qo‘shma korxonalarning sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 12,9 foizni tashkil etdi.